



INGLIZ-O'ZBEK TILLARIDA ISTAK/XOHISH KATEGORIYASINING DISKURSIV FUNKSIYALARI

Feruzjon Sharipov,

PhD, Ingliz tili o'qitish metodikasi №1 kafedrası

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil

Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil

Jurnal soni: 17-B

Maqola raqami: 39

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1473>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

istak kategoriyasi, diskurs, pragmatika, modallik, kognitiv semantika, qiyosiy tilshunoslik, ingliz tili, o'zbek tili.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada istak/xohish kategoriyasining ingliz va o'zbek tillarida namoyon bo'lishi hamda uning diskursiv funksiyalari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot semantik-pragmatik va kognitiv yondashuv asosida olib borilib, istakni ifodalovchi grammatik, leksik va modallik vositalari o'rganiladi. Ingliz tilida "wish", "would like", "hope", "desire" kabi birliklar ko'pincha hipotetiklik, muloyimlik strategiyasi va emotiv baholash funksiyalarini bajaradi. O'zbek tilida esa "xohlamoq", "istamoq", "orzu qilmoq", "gim keladi" konstruksiyalari subyektivlik, ijtimoiy-madaniy kontekst va nutq etiketi bilan chambarchas bog'liq holda qo'llanadi. Zamonaviy adabiy asarlardan olingan misollar istakning diskursiv yuklamasi, kommunikativ niyatni ifodalashdagi roli hamda shaxsiy va ijtimoiy identitetni shakllantirishdagi ahamiyatini ochib beradi.

Kirish. Istak/xohish kategoriyasi inson tafakkuri va kommunikativ faoliyatining muhim konseptlaridan biridir. Bu kategoriya nutqda subyektning ichki ehtiyoji, intilishi, xohishi yoki orzusini ifodalaydi hamda modallik tizimi bilan uzviy bog'liqdir. Diskursiv nuqtai nazardan qaralganda, istak faqat grammatik kategoriya emas, balki kommunikativ niyat, ijtimoiy munosabat va emotsional baholash vositasi hisoblanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda istak kategoriyasi kognitiv semantika va pragmatika nuqtai nazaridan tahlil qilinmoqda. Ingliz tilida istak "wish", "would like", "hope", "desire" kabi birliklar orqali ifodalanadi. Ushbu vositalar nafaqat semantik ma'no, balki diskursdagi ijtimoiy masofa, muloyimlik darajasi va emotiv ohangni ham belgilaydi. Masalan, "I wish I were there" konstruksiyasi nafaqat orzuni, balki realizatsiya qilinmagan holatga nisbatan nostalgiya yoki afsusni ham bildiradi.

O'zbek tilida esa istakning ifodalanishi leksik va affiksial vositalar orqali amalga oshiriladi: "xohlamoq", "istamoq", "orzu qilmoq", shuningdek "gim keladi" modeli. Masalan, "Bor-gim keladi" iborasida istak subyektiv va emotsional jihatdan kuchli ifodalanadi. O'zbek nutq madaniyatida istak ko'pincha ijtimoiy-madaniy me'yorlar bilan cheklanadi va ko'proq implitsit tarzda ifodalanadi.

Diskursiv jihatdan istak kategoriyasi quyidagi funksiyalarni bajaradi: niyatni bildirish, iltimos qilish, muloyimlikni ifodalash, orzu va hipotetik vaziyatni tasvirlash, emotsional munosabatlarni ko'rsatish. Qiyosiy tadqiqot esa ushbu funksiyalarning ikki til tizimida qanday realizatsiya qilinishini aniqlashga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili. Istak kategoriyasi modallik va konseptual semantika doirasida keng va ko'p qirrali tarzda o'rganilgan bo'lib, u nafaqat grammatik, balki kognitiv hamda diskursiv fenomen sifatida talqin qilinadi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan, George Lakoff va Mark Johnson¹ istakni konseptual metafora asosida izohlab, "Desire is force" modeli orqali uning semantik tabiatini ochib beradi. Ularning fikricha, inson ichki motivatsiyasi til orqali dinamik kuch, bosim yoki tortishish sifatida ifodalanadi (masalan, "I am driven by my desire", "She is pulled by her ambitions"). Bu yerda istak agentning ichki energiyasi sifatida talqin etilib, harakatga undovchi faktor vazifasini bajaradi. Kognitiv metafora modeli istakni statik holat emas, balki kuch va yo'nalishga ega jarayon sifatida tushuntiradi.

Modallik nazariyasida esa F.R.Palmer² istakni "volitional modality" doirasiga kiritadi. Palmerning ta'kidlashicha, volitiv modallik nutq egasining subyektiv xohishi, ixtiyori yoki niyatini aks ettiradi. Ingliz tilida "wish", "want", "would like", "be willing to" kabi konstruksiyalar turli darajadagi ixtiyoriylik va nazokatni ifodalaydi. Xususan, "would like" konstruksiyasi ko'pincha pragmatik yumshoqlik strategiyasi sifatida qo'llanib, bevosita talab o'rniga muloyim iltimos

shaklini beradi: "I would like to ask you...". Bu holat istakning nafaqat semantik, balki ijtimoiy-madaniy regulyator sifatida ham faol ekanligini ko'rsatadi.

Freyms semantikasi asoschisi Charles J. Fillmore³ istakni "Need/Desire frame" doirasida talqin qilib, uni komponentlarga ajratadi: (1) istovchi subyekt, (2) istak obyekti yoki maqsadi, (3) mavjud bo'lgan hozirgi holat, (4) kutilayotgan natija. Masalan, "I wish I could understand humans better" misolida subyekt (I), hozirgi cheklangan holat (to'liq tushunmaslik), ideal holat (yaxshiroq tushunish) va istak elementi aniq ajralib turadi. Freym yondashuvi qiyosiy tahlilda juda muhim bo'lib, ingliz va o'zbek tillaridagi istak ifodasining struktur elementlarini tizimli ravishda solishtirish imkonini beradi.

O'zbek tilshunosligida modallik va istak kategoriyasi affiksial va analitik vositalar orqali ifodalanishi bilan xarakterlanadi. Masalan, -gin, -chi qo'shimchalari ("Borsang-chi", "Kelsang-chi"), "kerak", "lozim", "istamoq", "xohlamoq" kabi birliklar volitiv semantikani yuzaga chiqaradi. Tadqiqotchilar⁴ o'zbek tilida istak ko'pincha kuchli emotsional komponentga ega ekanini ta'kidlaydi. Ayniqsa, "Yuragim tinchlikni istardi" kabi misollarda istak nafaqat xohish, balki ichki ruhiy ehtiyoj, iztirob yoki armonni ham anglatadi. Bu jihat o'zbek madaniy diskursida ichki kechinmalarning lirik ifodasi bilan uzviy bog'liq.

Metodologiya. Tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida istak/xohish kategoriyasining diskursiv funksiyalarini aniqlash maqsadida qiyosiy-tipologik hamda semantik-pragmatik yondashuv asosida olib borildi. Nazariy asos sifatida George Lakoff va Mark Johnsonning konseptual metafora nazariyasi, F.R.Palmerning modallik konsepsiyasi hamda Charles J. Fillmorening freym semantikasi qo'llanildi.

Empirik material sifatida zamonaviy ingliz va o'zbek adabiy matnlaridan, jumladan, Klara and the Sun hamda o'zbek yozuvchilari asarlaridan olingan misollar tahlil qilindi. Tadqiqotda deskriptiv, qiyosiy va diskursiv tahlil metodlari asosida istakni ifodalovchi leksik va grammatik vositalarning semantik hamda pragmatik xususiyatlari aniqlashtirildi.

Natijalar. Zamonaviy ingliz adabiyotida istak introspektiv diskursning muhim elementi hisoblanadi. Kazuo Ishiguroning Klara and the Sun⁵ asaridagi:

"I wish I could understand humans better" jumlasida "wish" realizatsiya qilinmagan, irreal istakni bildiradi. Bu konstruksiya epistemik noaniqlik va ontologik chegaralanganlikni ham ochib beradi. Qahramon o'z imkoniyatlari cheklanganligini anglagan holda, ideal holatni tasavvur qiladi. Bu yerda istak – o'z-o'zini anglash va mavjudlikni tahlil qilish vositasi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida esa istak ko'pincha ijtimoiy va ruhiy ziddiyat fonida namoyon bo'ladi. O'tkir Hoshimov⁶ asarlarida

¹ Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago : University of Chicago Press, 2003. – 276 p.

² Palmer F. R. Mood and Modality. – 2nd ed. – Cambridge : Cambridge University Press, 2001. – 236 p.

³ Fillmore C. J. Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin Publishing Co., 1982. – P. 111–137.

⁴ Abdullayeva N. Modallik kategoriyasining lingvistik talqini // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2018. – № 3. – B. 45–52.; Karimova M. O'zbek tilida istak modalligining ifodalanishi // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2020. – № 2. – B. 78–84.

⁵ Ishiguro K. Klara and the Sun. – London : Faber & Faber, 2021. – 320 p.

⁶ Hoshimov O'. Tanlangan asarlar. – Toshkent : Sharq, 2011. – 384 b.

ichki dunyo tasviri orqali istak insoniy mehr, tinchlik va adolat kabi qadriyatlarga yo'naltiriladi. "Yuragim tinchlikni istardi" kabi iboralarda istak – shaxsiy ehtiyoj bilan birga kollektiv ruhiyatni ham aks ettiradi.

Shuningdek, Xurshid Do'stmuhammad⁷ ijodida istak kategoriyasi yanada murakkab psixologik va falsafiy qatlamlarda ifodalanadi. Uning asarlarida qahramonlarning ichki monologlari va ong oqimi elementlari orqali istak ko'pincha realizatsiya va reallik o'rtasidagi tafovutni ochadi. Do'stmuhammad qahramonlari uchun istak – bu nafaqat ehtiyoj, balki identitetni izlash, ma'naviy poklanish yoki yo'qotilgan qadriyatlarni qayta topishga intilish shaklidir. U yerda istak ko'pincha metaforik obrazlar ("ko'ngil chanqoqligi", "ruhiy bo'shliq", "yorug'likka intilish") orqali berilib, kognitiv metafora nazariyasi bilan uyg'unlashadi.

Xurshid Do'stmuxammadning "Dardingni olay" hikoyasida istakning ichki holatni "tinchitish/yo'naltirish" funksiyasini ko'rishimiz mumkin, ya'ni hikoyada istak/xohish ko'pincha personajning ichki inijligi, kayfiyat tebranishi, psixologik moslashuvi bilan bog'lanadi: istak "xohlayman" shaklida bo'lmasligi ham mumkin — u "xohish-istaklar" kabi umumlashtirilgan nomlanish orqali ham diskursga kiradi. Matndan: "...xoxuu-ustaklarpuca..." Bu parcha personajning ichki

dunyosida istaklar "mayda" emas, kommunikativ va ruhiy holatni boshqaruvchi omil sifatida ko'rinadi. Ya'ni istak — shunchaki "xohlamoq" emas, nutqiy vaziyatda kayfiyatni o'zgartiradigan kuch.

Istak kategoriyasi modallik doirasida volitiv semantika sifatida, konseptual semantika doirasida esa kuch, ehtiyoj va harakat metaforalari orqali talqin qilinadi. Zamonaviy diskurs yondashuvi esa uni ijtimoiy-madaniy va pragmatik strategiya sifatida baholaydi. Ingliz va o'zbek adabiy matnlarida istak insonning ichki dunyosini, ruhiy ehtiyojlarini va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi markaziy semantik kategoriya sifatida namoyon bo'ladi.

Muhokama. Zamonaviy ingliz adabiyotidan misol sifatida Kazuo Ishiguro ("Klara and the Sun", 2021) asarida⁸:

"I wish I could understand humans better."

Ushbu misolda "wish" konstruksiyasi realizatsiya qilinmagan istakni bildiradi va introspektiv diskurs funksiyasini bajaradi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotidan O'tkir Hoshimov asarlarida:

"Yuragim tinchlikni istardi."

Bu yerda "istamoq" fe'li shaxsiy ehtiyoj va ruhiy holatni aks ettiradi.

Diskursiv funksiya	Ingliz tili	O'zbek tili
Hipotetik istak	<i>I wish I were...</i>	<i>Qaniydi...</i>
Muloyim iltimos	<i>I would like...</i>	<i>Iltimos, xohlasam bo'ladimi...</i>
Emotiv istak	<i>I really want...</i>	<i>Juda xohlayman...</i>
Nostalgik orzu	<i>I wish I had...</i>	<i>Eh, shunday bo'lsa edi...</i>

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida istak kategoriyasi grammatik jihatdan formal tizimga ega bo'lib, zamon va mayl

konstruksiyalari orqali aniqlik beradi. O'zbek tilida esa istak ko'proq kontekstual va emotsional tusga ega.

Ingliz va o'zbek tillarida istak kategoriyasining qiyosiy tahlili

Tahlil mezon	Ingliz tili	O'zbek tili	Qisqa izoh
Nazariy asos (modallik)	Volitional modality (Palmer)	Ixtiyoriylik/istak modalligi	Har ikki tilda subyekt xohishi markazda
Asosiy fe'llar	wish, want, would like, desire	istamoq, xohlamoq	Ingliz tilida leksik vosita ustun
Affiksial vositalar	Cheklangan (asosan yordamchi fe'llar)	-gin, -chi, -sa edi, -moqchi	O'zbek tilida morfologik ifoda kuchli
Analitik konstruksiyalar	would like to..., be willing to...	niyat qilmoq, xohish bildirmoq	Ikkalasida ham mavjud
Freyms komponentlari (Fillmore)	Subyekt + Desire object + Ideal state	Subyekt + Istak obyekti + Holat	Struktur jihatdan o'xshash
Emotsional komponent	Ko'proq neytral yoki individual	Kuchli lirik-emotsional bo'yoq	O'zbek diskursida ruhiylik yuqori
Metaforik model (Lakoff)	DESIRE IS FORCE (driven by desire)	Ko'ngil tortdi, yurak istadi	Har ikkala til kuch metaforasidan foydalanadi
Diskurs funksiyasi	Introspektiv, pragmatik yumshoqlik	Ruhiy ehtiyoj, ichki monolog	Adabiyotda sezilarli farq bor
Ijtimoiy-madaniy xususiyat	Individual xohish markazda	Kollektiv qadriyat va ruhiy tinchlik	O'zbek tilida jamoaviy ruh seziladi

Struktur jihatdan qiyosiy tahlil

Ingliz tili	O'zbek tili	Tahlil
I wish I could understand.	Tushunsam edi.	Irreal istak
I would like some tea.	Choy ichsam bo'lardi.	Muloyim istak
She wants to leave.	U ketmoqchi.	Niyat + harakat
He is driven by ambition.	Uni orzu oldinga yetaklaydi.	Metaforik kuch modeli

Ingliz va o'zbek tillarida istak kategoriyasi insonning ichki xohishi, niyati yoki ehtiyojini ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Biroq uning mazmunini talqini va ifoda shakli ikki tilda ma'lum farqlarga ega.

Ingliz tilida istak asosan leksik vositalar orqali ifodalanadi. "Wish", "want", "would like", "desire" kabi fe'llar subyektning individual xohishini bildiradi. Ayniqsa, "would like" konstruksiyasi nafaqat xohish, balki nutqdagi muloyimlik strategiyasini ham ifodalaydi. Ingliz tilida istak ko'pincha shaxsiy tanlov va individual qaror bilan bog'lanadi. Irreal istakni ifodalashda "wish + past tense"

modeli qo'llanadi (masalan, "I wish I knew"). Bunda istak amalga oshmagan yoki real bo'lmagan holat sifatida tasvirlanadi. Mazmunan ingliz tilidagi istak ko'proq individual psixologik motivatsiyaga yo'naltirilgan bo'ladi.

O'zbek tilida esa istak kategoriyasi morfologik vositalar orqali keng ifodalanadi. "Istamoq", "xohlamoq", "-moqchi", "-sa edi", "-gin", "-chi" kabi shakllar subyektiv xohishni bildiradi. Masalan, "Borsam edi", "Yuragim tinchlikni istardi" jumllarida istak nafaqat niyat, balki chuqur ruhiy ehtiyoj va ichki kechinmani ham ifodalaydi. O'zbek tilida istak ko'pincha emotsional va lirik mazmunga ega. U shaxsning ichki

⁷ Do'stmuhammad X. Tanlangan asarlar. – Toshkent : O'zbekiston, 2018. – 400 b.

⁸ Ishiguro K. **Klara and the Sun**. – London : Faber & Faber, 2021. – 320 p.

dunyosi, iztirobi yoki umidi bilan bog‘lanadi. Shu jihatdan o‘zbek tilidagi istak semantik jihatdan kuchli affektiv (hissiy) komponentga ega.

Kognitiv nuqtayi nazardan har ikki tilda ham istak “kuch” metaforasi orqali konseptualashtiriladi. Masalan, ingliz tilida “driven by desire” (istak tomonidan harakatga keltirilgan) iborasi, o‘zbek tilida esa “ko‘ngli tortdi”, “orzu yetakladi” kabi ifodalar uchraydi. Bu o‘xshashlik istakning universal kognitiv modelga ega ekanini ko‘rsatadi.

Diskursiv jihatdan ingliz tilida istak pragmatik yumshoqlik va ijtimoiy nazokat bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek tilida u ko‘proq ruhiy-axloqiy qadriyatlar bilan integratsiyalashgan. O‘zbek adabiy matnlarida

istak ko‘pincha tinchlik, mehr, adolat yoki ma‘naviy poklanish kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liq tarzda beriladi.

Xulosa. Istak/xohish kategoriyasi ingliz va o‘zbek tillarida muhim diskursiv funksiya bajaradi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilida istak grammatik modallik tizimiga asoslangan bo‘lsa, o‘zbek tilida esa leksik-analitik vositalar orqali ifodalanadi. Har ikki tilda istak kommunikativ niyat, emotsional baholash va muloyimlik strategiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy adabiy matnlar istakning diskursiv kontekstda semantik va pragmatik yuklamasini chuqurroq ochib beradi. Mazkur tadqiqot qiyosiy tilshunoslik, diskurs tahlili va kognitiv semantika rivojiga hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayeva N. Modallik kategoriyasining lingvistik talqini // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2018. – № 3. – B. 45–52.
2. Do‘stmuhammad X. **Tanlangan asarlar.** – Toshkent : O‘zbekiston, 2018. – 400 b.
3. Fillmore C. J. Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin Publishing Co., 1982. – P. 111–137.
4. Hoshimov O‘. **Tanlangan asarlar.** – Toshkent : Sharq, 2011. – 384 b.
5. Ishiguro K. **Klara and the Sun.** – London : Faber & Faber, 2021. – 320 p.
6. Karimova M. O‘zbek tilida istak modalligining ifodalanishi // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2020. – № 2. – B. 78–84.
7. Lakoff G., Johnson M. **Metaphors We Live By.** – Chicago : University of Chicago Press, 2003. – 276 p.
8. Palmer F. R. **Mood and Modality.** – 2nd ed. – Cambridge : Cambridge University Press, 2001. – 236 p.